

O‘ZBEK YOZUVCHISI, SHOIRI VA AKADEMIK G‘AFUR
G‘ULOMNING BADIY MAHORATI

Gulmurodov Firuzbek Olimjon o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi
gulmurodovfiruzbek@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida o‘zining ijodi orqali yorqin iz qoldirgan yozuvchi, shoir va akademik G‘afur G‘ulom asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, ijodkor mahorati, asarlarining talqini haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: G‘afur G‘ulom, ijodkor mahorati, shoir hayoti va ijodi.

KIRISH

Odatda qomusiy bilim sohiblari to‘g‘risida so‘z borganda hayolimiz olis asrlarga qanot qoqib, o‘sha olis asrlarda yashagan Abu Nasr Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy singari allomalar ko‘z oldimizda gavdalana boshlaydi. Asrlar va davrlar karvoni o‘tishi bilan barhayotlari ham afsonaviy siymolarga aylanib, qomusiy bilim sohiblari zamoni bizga ko‘hna tarix qa‘rida qolgandek tuyulaveradi. Holbuki, ma‘rifatli inson borki, bilim xazinasini doimo to‘ldirib boradi. Ular orasida shunday insonlar bo‘ladilarki, biz zamondosh bo‘lganligimiz tufayli ularning tom ma‘noda qomusiy bilim sohiblari darajasiga ko‘tarilgan noyob siymolar ekanliklarini bilmay yashaymiz. [1]

ASOSIY QISM

G‘afur G‘ulom Sharqning buyuk shoirlaridan biri Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan maqolalaridan birida bunday deb yozgan edi. Men Sharq shoiriman. Shuning uchun Sharq klassiklarining hammasi mening xesh-akroblarim, desam ajablanarli bo‘lmas. Mening bu xesh-akroblarim – fors poeziyasining otasi Abu Abdullo Ja‘far ibn Muhammad binni Abdurahmon binni Odam Rudakiy, Hakim Abdulqosim Firdavsiy, Hakim Umar Xayyom, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy va boshqalardir. Meni shularning me‘rosi va an‘analari tarbiyalagan. Hali beshikda yotar ekanman, onam Hofiz, Jomiy, Navoiy va Fuzuliy g‘azallaridan honish qilib, meni allalardi. [2]

Akademik Naim Karimov yozuvchi, shoir va akademik G‘afur G‘ulom nafaqat shoir, balki haqgo‘y tarixchi olim ham ekanligini ta‘kidlab o‘tadi. Shuningdek, G‘afur G‘ulom temuriy shaxzodalar o‘rtasida bo‘lgan taxt uchun talashuvlar natijasida qirg‘inlar boshlanib, ulkan va qudratli saltanatning uch xonlikka ajralib ketganini va bu tarixiy jarayonning xalq boshiga qanchadan-qancha jabr-zulmlar keltirganini ham chetlab o‘tmaydi.

Gʻafur Gʻulom “Vatanim – Oʻzbekiston” maqolasining tarixiy oʻtmishiga bagʻishlangan qismida xalqimiz uchun bundan keyin ham saboq boʻlib qoladigan tarixiy voqealarga eʼtibor qaratgan, gʻoyat muhim ijtimoiy masalalarni koʻtargan. Bu masalalar uning qomusiy bilim sohibi sifatidagi obraziga muhim chizgilar qoʻshibgina qolmay, Gaʻfur Gʻulomning donishmand inson va donishmand shoir boʻlganidan ham shahodat beradi. [3]

Bu majlis ichra hozir oʻn dilorom.

Bari ham sarvqomat, ham gulandon.

Kelib har qaysi bir fazl ichra mohir,

Mahorat shevasi har birda zohir.

Biri – ashʻor bagʻri ichra gʻavvos,

Biri – advor davri ichra raqqos.

Biri – mantiq rusumida raqamkash,

Biri – hayʻat rukumiga qalamkash.

Birining shevasi – ilmiy haqoyiq,

Balogʻatda biri aytib daqoyiq.

Biri tarixda soʻz ichra fasona,

Biri – hikmat fani ichra yagona.

Hisob ichra birining zehni borib,

Muammoda birisi ot chiqorib.

Bu fanlarda bular bir-biridan ahsan,

Yuz ul fanlik aro har qaysi yakfan.

Gʻafur Gʻulom Navoiyning oʻn diloromga bergan bu shoirona taʼrifini sharhlar ekan, bunday yozadi: “Soʻz-ku ilm-maʼrifat toʻgʻrisida borib turibdi, lekin shu orinda Navoiyning xotin-qizlarga nisbatan bolgan oliyjanob munosabatini va ularni – zikr qilinganday – olima va fozila boʻlishlarini nechogʻliq orzu qilganligini eslatib oʻtish kifoya. Navoiy yaratgan xotin-qizlar obrazlari hamisha ozod, erlar bilan butun dunyoviy huquqlarda teng, ilm-maʼrifat sohibasi boʻlgan kishilar sifatida tasvir etiladi” [4]

XULOSA

Oʻzbek yozuvchisi, shoir va akademik Gʻafur Gʻulomni yaratilgan asarlarida oʻz davrining mavjud ijtimoiy, siyosiy va huquqiy muammolarini badiiy mahorati orqali mohirona aks ettira olgan buyuk yozuvchi sifatida bilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Gʻafur Gʻulomning badiiy mahorati. TDYU, 2021. 3-bet.
2. Gʻafur Gʻulomning badiiy mahorati. TDYU, 2021. 8-bet.
3. Gʻafur Gʻulomning badiiy mahorati. TDYU, 2021. 9-bet.
4. Gʻafur Gʻulom. Mukammal asarlar toʻplami. VII jild. Ocherklar, publisistika. Toshkent: Fan, 1987. 258-bet.